"Filologiya va pedagogikada yangicha ilmiy izlanishlar:
an'anaviylikdan zamonaviylikka"

# RAQAMLI DAVRDA O'ZBEK TILI LEKSIKASINING YANGILANISHI: IMKONIYATLAR, MUAMMOLAR VA ME'YORIY YECHIMLAR

**Islomova E'zoza Yorqin qizi**

Navoiy davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 2-kurs magistranti

## Annotatsiya:

Mazkur tadqiqot raqamli davr, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellekt ta'sirida o'zbek tili leksikasining yangilanish jarayonini o'rganishga bag'ishlanadi. Tadqiqotda zamonaviy kommunikatsiyada uchrayotgan 100 ta zamonaviy yangi va o'zlashma birlikdan iborat ishchi korpus shakllantirilib, ulardan 30 tasi sun'iy intellekt vositalari yordamida tajriba o'tkazish uchun ajratildi. Gemini, Grok va ChatGPT tizimlariga bir xil mazmundagi topshiriq berilib, har bir termin uchun uchtadan o'zbekcha muqobil variant olindi va jami 270 ta variant hosil qilindi. Ular ma'no aniqligi, tabiiylik, milliy-lisoniy moslik, so'z yasash modeliga moslik, qo'llash qulayligi va me'yoriylik mezonlari asosida 0–2 ballik shkala bilan ishchi ekspert tahlilidan o'tkazildi. Tadqiqot natijalari sun'iy intellektning o'zbekcha termin yaratishdagi imkoniyatlari bilan bir qatorda semantik noaniqlik, sun'iy yasalish va me'yorlashtirish muammolarini ham ko'rsatdi.

## Kalit so'zlar:

O'zbek tili, leksika, leksik yangilanish, neologizm, o'zlashma birlik, raqamli davr, sun'iy intellekt, terminologiya, AI muqobillari, so'z yasash, me'yorlashtirish, raqamli kommunikatsiya.

## 1. MUAMMO VA TADQIQOT DOLZARBLIGI

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida kundalik nutq, internet kommunikatsiyasi, ta'lim, biznes hamda ommaviy axborot vositalarida yangi tushunchalar tez sur'atlarda paydo bo'lmoqda. Bu tushunchalarning muayyan qismi ingliz va boshqa tillardan tayyor holda o'zlashtirilayotgan bo'lsa, ayrimlari o'zbek tilining mavjud lug'aviy va so'z yasash imkoniyatlari asosida aks etmoqda. Natijada o'zbek tili leksikasida o'zlashma, kalkalash, yasama va semantik yangilanish jarayonlari parallel ravishda kechmoqda.

O'zbekiston Respublikasining til siyosatiga oid me'yoriy hujjatlarida o'zbek tilining zamonaviy rivojlanishini ta'minlash, lug'at tarkibini boyitish, til sofligini saqlash va uni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan integratsiyalash muhim

ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Raqamli davrda ushbu vazifa yangi terminlarni tezkor yaratish bilan birga ularning tabiiyligi va me'yoriyligini ta'minlashni talab etadi. Ayniqsa, generativ sun'iy intellekt (AI) tizimlarining ommalashuvi ushbu sohada yangi imkoniyatlarni ochdi: foydalanuvchi chet tilidagi termin uchun bir necha soniyada o'zbekcha muqobil variantlarni olishi mumkin. Biroq AI tomonidan taklif qilingan har bir variantni tayyor termin sifatida qabul qilish ilmiy jihatdan to'g'ri emas. Variantning ma'nosi, uslubiy qo'llanishi, o'zbek tilining so'z yasash qonuniyatlariga mosligi hamda me'yoriyligi inson ekspertizasi orqali tekshirilishi lozim.

Shu sababli tadqiqotning asosiy muammosi quyidagicha belgilanadi: raqamli davrda paydo bo'layotgan yangi tushunchalarni o'zbek tilida qanday nomlash mumkin va sun'iy intellekt taklif qilayotgan muqobillardan qaysilari lingvistik jihatdan maqbul yo'nalishga ega?

## 2. MAQSAD VA VAZIFALAR

Tadqiqotning asosiy maqsadi — raqamli davrda o'zbek tili leksikasining yangilanish jarayonini amaliy material asosida tahlil qilish, yangi va o'zlashma birliklarning nomlanish xususiyatlarini aniqlash hamda sun'iy intellekt tomonidan taklif etilayotgan o'zbekcha muqobillarning lingvistik mosligini baholashdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

1. 100 ta zamonaviy yangi va o'zlashma birlikdan iborat ishchi korpus tuzish;
2. 30 ta terminni tanlab, uchta AI tizimidan muqobil variantlar olish;
3. 270 ta AI variantini yagona mezonlar asosida tahlil qilish;
4. Variantlarni olti mezon: ma'no aniqligi, tabiiylik, milliy-lisoniy moslik, so'z yasash modeli, qo'llash qulayligi va me'yoriylik bo'yicha baholash;
5. AI variantlarining takrorlanishi hamda so'z yasash modellarini aniqlash;
6. Muammoli variantlarni lingvistik jihatdan izohlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish

## 3. METODOLOGIYA

Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy, statistik, eksperimental va lingvistik tahlil metodlaridan kompleks foydalanildi. Dastlab zamonaviy raqamli kommunikatsiyada faol uchraydigan 100 ta zamonaviy yangi va o'zlashma birlikdan iborat ishchi korpus shakllantirildi. Mazkur ro'yxat yakuniy neologizmlar lug'ati emas, balki tajriba va kuzatish uchun tuzilgan dastlabki korpus sifatida qaraldi.

Keyingi bosqichda 30 ta termin tanlab olindi. Gemini, Grok va ChatGPT tizimlariga mazmunan bir xil topshiriq berildi. Har bir tizimdan har bir termin uchun uchta variant olinib, jami 270 ta variant hosil bo'ldi. Muvaffaqiyatsiz deb topilgan variantlar ham tadqiqot materiali sifatida saqlab qolindi.

1-jadval. AI variantlarini baholash mezonlari

| Mezon | Mazmuni | Ball |
|---|---|---|
| **Ma'no aniqligi** | Termin mazmunining to‘g‘ri va aniq ifodalashi | 0–2 |
| **Tabiiylik** | O‘zbekcha nutqda tabiiy va ravon eshitilishi | 0–2 |
| **Milliy-lisoniy moslik** | O‘zbek tilining lug‘aviy va ifoda imkoniyatlariga mosligi | 0–2 |
| **So‘z yasash modeliga moslik** | O‘zbekcha birikish, affiksatsiya yoki kalkalash modeliga mosligi | 0–2 |
| **Qo‘llash qulayligi** | Qisqa, tushunarli va amaliy muloqotda qo‘llashga qulayligi | 0–2 |
| **Me'yoriylik** | Adabiy til va terminologik me'yorlarga moslashish imkoniyati | 0–2 |

## 4. 100 TA ZAMONAVIY YANGI VA O‘ZLASHMA BIRLIKDAN IBORAT ISHCHI KORPUS

2-jadval. Ishchi korpus tarkibi (100 ta birlik)

| Birlik | № | Birlik | № | Birlik | № | Birlik |
|---|---|---|---|---|---|---|
| bloger | **26** | targetolog | **51** | elektron hukumat | **76** | sun'iy intellekt |
| vloger | **27** | mobilograf | **52** | raqamlashtirish | **77** | AI |
| podkast | **28** | krieytor | **53** | raqamli savodxonlik | **78** | generativ AI |
| strimer | **29** | influencer | **54** | media savodxonlik | **79** | AI-model |
| chatbot | **30** | SMM | **55** | kiberxavfsizlik | **80** | AI-yordamchi |
| onlayn | **31** | digital marketolog | **56** | kiberjinoyat | **81** | prompt |
| oflayn | **32** | PR-menejer | **57** | kibersport | **82** | AI-tarjima |
| smartfon | **33** | frilanser | **58** | geoportal | **83** | mashinaviy tarjima |
| gadjet | **34** | startap | **59** | biometrik identifikatsiya | **84** | digital footprint |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **0** | messenjer | **35** | webinar | **60** | elektron imzo | **85** | content creator |
| **1** | platforma | **36** | brifing | **61** | elektron to‘lov | **86** | streaming |
| **2** | post | **37** | target reklama | **62** | krash | **87** | AI agent |
| **3** | repost | **38** | target auditoriya | **63** | krinj | **88** | deepfake |
| **4** | layk | **39** | engagement | **64** | tresh | **89** | deep learning |
| **5** | xeshteg | **40** | netiket | **65** | hype | **90** | machine learning |
| **6** | storis | **41** | kriptovalyuta | **66** | vibe | **91** | cloud computing |
| **7** | reels | **42** | blokcheyn | **67** | selfi | **92** | big data |
| **8** | spam | **43** | marketplace | **68** | challenge | **93** | data mining |
| **9** | trend | **44** | e-commerce | **69** | follow | **94** | virtual reallik |
| **0** | chat | **45** | onlayn savdo | **70** | share | **95** | kengaytirilgan reallik |
| **1** | akkaunt | **46** | fintech | **71** | block qilmoq | **96** | raqamli iz |
| **2** | avatar | **47** | cashback | **72** | chatlashmoq | **97** | elektron xizmat |
| **3** | kontent | **48** | promokod | **73** | zoomlashmoq | **98** | raqamli platforma |
| **4** | kontent-meyker | **49** | masofaviy ta’lim | **74** | post yozmoq | **99** | onlayn kurs |
| **5** | kopirayter | **50** | masofaviy ish | **75** | layk bosmoq | **100** | QR-kod |

## 5. 30 TERMIN BO'YICHA AI TAJRIBASI

3-jadval. Tajriba uchun ajratilgan 30 ta termin

| Termin | № | Termin | № | Termin |
|---|---|---|---|---|
| digital footprint | **11** | reels | **21** | startup |
| content creator | **12** | stories | **22** | marketplace |
| influencer | **13** | repost | **23** | cybersecurity |
| prompt | **14** | like | **24** | media literacy |
| chatbot | **15** | share | **25** | digital literacy |
| streaming | **16** | follow | **26** | e-government |
| avatar | **17** | copywriter | **27** | generative AI |
| hashtag | **18** | targetolog | **28** | AI assistant |
| bloger | **19** | mobilograf | **29** | AI translation |
| **0** vlogger | **20** | freelancer | **30** | machine translation |

Standart topshiriq (prompt): "[TERM] terminini o'zbek tiliga tarjima qiling. O'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan foydalanib 3 ta muqobil variant taklif qiling. Variantlarni tabiiylik va ma'no aniqligi nuqtayi nazaridan izohlang.

## 6. AI MUQOBILLARINI OLISH VA TASNIFLASH

4-jadval. Sun'iy intellekt tizimlari taklif etgan variantlar (namuna)

| Termin | Gemini | Grok | ChatGPT |
|---|---|---|---|
| **digital footprint** | Raqamli iz; Virtual qadamgoh; Tarmoq izingi | Raqamli oyoqizi; Tarmoq izi; Raqamli belgi | Raqamli iz; Elektron iz; Raqamli faoliyat izi |
| **content creator** | Mundarija yaratuvchi; Matn-tasvir ustasi; Tarmoq ijodkori | Mazmun yaratuvchi; Material yaratuvchi; Raqamli ijodkor | Mazmun yaratuvchi; Axborot yaratuvchi; Mazmun bunyodkori |
| **influencer** | Ta'sirchi; Jamoatchilik yetakchisi; Yo'naltiruvchi | Ta'sir o'tkazuvchi; Fikr yetakchisi; Obro'li shaxs | Ta'sir ko'rsatuvchi; Ta'sirchi; Ergashtiruvchi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **prompt** | Ko‘rsatma; Buyruq yoki savol-buyruq; Turtki | So‘rov; Topshiriq; Ko‘rsatma | Ko‘rsatma; Topshiriq; So‘rov |
| **chatbot** | Suhbatdosh; Muloqotbop; Gapirtirgich | Suhbatdosh; Virtual suhbatdosh; Avtosuhbatchi | Suhbatdosh dastur; Muloqotchi dastur; Savol-javobchi |
| **streaming** | Tarmoqli uzatish; Jonli uzatish; Oqimli uzatish | Jonli oqim; Uzluksiz uzatish; Oqim | Oqimli uzatish; Uzluksiz uzatish; Oqimli namoyish |
| **avatar** | Profil surati; Nishoncha; Raqamli qiyofa | Virtual obraz; Shaxsiy tasvir; Onlayn qiyofa | Raqamli qiyofa; Virtual qiyofa; Elektron timsol |
| **hashtag** | Kalit so‘z; Belgili so‘z; Mavzu yorlig‘i | Mavzu belgisi; Kalit yorliq; Teg belgi | Mavzu belgisi; Mavzu yorlig‘i; Kalit belgi |
| **bloger** | Kunomalchi; Tarmoq faoli; Muallif-kuzatuvchi | Blog yurituvchi; Kundalik yozuvchi; Veb-yozuvchi | Tarmoq muallifi; Blog yurituvchi; Internet muallifi |
| **freelancer** | Erkin xodim; Mustaqil mutaxassis; Erkin yollanma | Mustaqil mutaxassis; Erkin ishlovchi; Masofaviy mutaxassis | Erkin ishlovchi; Mustaqil mutaxassis; Erkin mutaxassis |
| **marketplace** | Savdo maydoni; Onlayn bozor; Internet-do‘konlar tarmog‘i | Onlayn bozor; Elektron bozor; Sotuv maydonchasi | Elektron savdo maydoni; Onlayn savdo bozori; Raqamli savdo maydoni |
| **cybersecurity** | Kiberxavfsizlik; Tarmoq himoyasi; Raqamli mudofaa | Kiberxavfsizlik; Raqamli xavfsizlik; Axborot xavfsizligi | Kiberxavfsizlik; Raqamli xavfsizlik; Elektron xavfsizlik |
| **generative AI** | Yaratuvchi sun’iy intellekt; Kashf etuvchi intellekt; Inovatsion sun’iy idrok | Yaratuvchi sun’iy intellekt; Generativ SI; Kontent yaratuvchi SI | Yaratuvchi sun’iy intellekt; Ijodkor sun’iy intellekt; Hosil qiluvchi sun’iy intellekt |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **machine translation** | Mashina tarjimasi; Avtotarjima; Dasturiy tarjima | Mashina tarjimasi; Avtomatik tarjima; Kompyuter tarjimasi | Mashina tarjimasi; Avtomatik tarjima; Kompyuter tarjimasi |

## 7. AI TIZIMLARI BO'YICHA O'RTACHA NATIJALAR

5-jadval. Ishchi tahlil doirasidagi o'rtacha ballar

| Tizim | O'rtacha ball (12 dan) | Foiz |
|---|---|---|
| **ChatGPT** | 11,06 | 92,1% |
| **Grok** | 10,61 | 88,4% |
| **Gemini** | 9,17 | 76,4% |

Muhim ilmiy izoh: Mazkur ko'rsatkichlar faqat ushbu tajriba doirasidagi ishchi natijalardir. Ularni AI tizimlarining umumiy reytingi yoki ustuvorligi sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan noto'g'ridir.

## 8. AI VARIANTLARINING TAKRORLANISHI

6-jadval. Variantlarning takrorlanish statistikasi

| Ko'rsatkich | Natija |
|---|---|
| Jami taklif qilingan variantlar | **270** |
| Noyob variantlar soni | **218** |
| Uchala AI'da bir xil taklif etilganlar | **10 (4,59%)** |
| Ikki AI'da takrorlanganlar | **32 (14,68%)** |
| Faqat bitta AI'da uchraganlar | **176 (80,73%)** |

## 9. SO'Z YASASH MODELLARI

7-jadval. AI variantlaridagi so'z yasash modellarining ulushi

| Model | Soni | Ulushi |
|---|---|---|
| Birikmali nomlash / kalkalash | **174** | **64,44%** |
| Affiksatsiya / yasama birlik | **48** | **17,78%** |
| Semantik nomlash / sodda birlik | **39** | **14,44%** |
| O'zlashma / o'zlashma + o'zbekcha | **6** | **2,22%** |
| Qisqartma / qisqartma + birikma | **3** | **1,11%** |

Tahlil: Tajribada eng faol model birikmali nomlash va kalkalash ekanligini ko‘rish mumkin. (64,44%). Bu holat raqamli davrdagi murakkab tushunchalarni o‘zbek tilida ikki yoki undan ortiq birlik birikmasi orqali nomlashga ehtiyoj yuqori ekanini tasdiqlaydi.

## 10. LINGVISTIK TAHLIL

**1. Digital footprint atamasi uchun** taklif etilgan “raqamli iz” varianti ixchamligi va ma’noni aniq yetkazishi bilan ajralib turadi. “Raqamli oyoqizi” esa so‘zma-so‘z kalkalash natijasi bo‘lib, o‘zbek tili uchun sun’iy va noadabiy tuyuladi. “Virtual qadamgoh” esa tushunchaning asosiy semantik ma’nosidan uzoqlashgan.

**2. Content creator tushunchasida** “mazmun yaratuvchi” birikmasi termin semantikasini to‘g‘ri ochib beradi. Aksincha, “mundarija yaratuvchi” varianti semantik torayishga uchragan va tushunchani noto‘g‘ri aks ettiradi.

**3. Influencer uchun** taklif qilingan “ta’sirchi” shakli ixcham bo‘lsa-da, barcha kontekstga mos tushavermaydi. “Ta’sir ko‘rsatuvchi” izohliroq, “ergashtiruvchi” esa tushuncha ko‘lamini ma’lum kontekstlarda toraytirib qo‘yadi.

**4. Prompt atamasida** “ko‘rsatma”, “topshiriq” va “so‘rov” variantlari taklif qilingan bo‘lib, ularning har biri kontekstual qo‘llanishiga qarab farqlanadi.

**5. Chatbot uchun** “suhbatdosh” va “suhbatdosh dastur” birikmalari funksional vazifani aniq aks ettiradi; “gapirtirgich” kabi shakllar esa adabiy-uslubiy tabiiylik mezoniga javob bermaydi.

**6. Streaming atamasiga nisbatan** “oqimli uzatish” va “uzluksiz uzatish” umumiy va neytral xarakterga ega; “jonli uzatish” esa bevosita live streaming tushunchasiga mos keladi.

**7. Cybersecurity bo‘yicha** “kiberxavfsizlik” shakli xalqaro komponentning o‘zbek tiliga moslashgan birikmasi hisoblanadi. Uni tarkibida chet tili unsuri borligi sababli mos emas deb baholash noto‘g‘ri.

**8. Generative AI uchun** “yaratuvchi sun’iy intellekt” birikmasi funksional ma’noni to‘g‘ri ifodalaydi. “Kashf etuvchi intellekt” esa generativlik mohiyatini to‘liq ochib berolmaydi.

**9. Machine translation bo‘yicha** “mashina tarjimasi” va “avtomatik tarjima” atamalari tushunchani aniq va barqaror ifodalaydi. “Kompyuter tarjimasi” varianti esa vositaviy jihatdan nisbatan tor tushunchani anglatadi.

## 11. MUAMMOLAR

• Raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq yangi terminlarning o‘ta yuqori tezlikda paydo bo‘layotgani;

• Bitta tushuncha uchun bir nechta parallel, sun’iy yoki xilma-xil nomlarning shakllanayotgani;

• So‘zma-so‘z kalkalash oqibatida o‘zbek tilining ichki grammatik va uslubiy tabiatiga mos bo‘lmagan shakllarning yasalayotgani;

• Sun’iy intellekt tizimlari tomonidan ba’zida semantik va uslubiy jihatdan g‘aliz variantlarning taklif etilishi;

• Ijtimoiy tarmoqlardagi norasmiy, jargon ko‘rinishidagi birliklarning me’yorlashmay turib adabiy nutqqa kirib kelishi;

• Terminlarni me’yorlashtirishda tilshunoslar hamda soha mutaxassislari hamkorligining tizimlashtirilmagani.

## 12. YECHIMLAR VA AMALIY TAVSIYALAR

1. Ochiq va muntazam yangilanib boruvchi elektron terminologik bazani shakllantirish;

2. Yangi terminlarni “tushuncha — nomlash — ekspert me’yorlashtirishi” bosqichli ketma-ketligida ko‘rib chiqish;

3. AI takliflarini tayyor va yakuniy termin emas, balki boshlang‘ich lingvistik material sifatida qabul qilish;

4. Ma’no aniqligi, tabiiylik va amaliy qo‘llash qulayligi yuqori bo‘lgan variantlarni ekspertlar kengashi orqali saralash;

5. Ijtimoiy tarmoqlar leksikasini doimiy ilmiy monitoring qilib borish;

6. O‘zbek tilining ichki so‘z yasash imkoniyatlaridan (affiksatsiya, birikma, semantik kengayish, kalkalash) tizimli foydalanish;

7. Xalqaro komponentlarni avtomatik rad etmasdan, ularning o‘zbek tilining imlo va fonetik qoidalariga moslashuv darajasini baholash;

8. Tilshunoslar, soha mutaxassislari, texnologlar va keng jamoatchilik fikrini birlashtiruvchi zamonaviy platforma yaratish

## 13. ILMIY YANGILIK

Tadqiqotning ilmiy yangiligi raqamli davrda o‘zbek tili leksikasining yangilanish jarayoni sun’iy intellekt imkoniyatlari bilan integratsiyalashgan holda va eksperimental usulda o‘rganilganida namoyon bo‘ladi. 30 ta termin bo‘yicha uchta AI tizimidan olingan 270 ta variant yagona lingvistik mezonlar asosida kompleks baholanib, ularning ma’no aniqligi, tabiiylik, milliy-lisoniy moslik, so‘z yasash modeli, qo‘llash qulayligi hamda me’yoriylik ko‘rsatkichlari ilmiy tahlil etildi.

## 14. XULOSA

Raqamli davr o‘zbek tili leksikasining yangilanish va boyish jarayonini sezilarli darajada jadallashtirmoqda. Yangi tushunchalar o‘zlashma birliklar orqali ham, o‘zbek tilining ichki so‘z yasash hamda nomlash imkoniyatlari asosida ham namoyon bo‘lmoqda.

O‘tkazilgan tajriba sun’iy intellekt tizimlarining o‘zbekcha muqobil variantlar ishlab chiqishda yuqori samaradorlikka ega ekanini ko‘rsatdi. Biroq AI takliflarining

barchasi ham bir xil lingvistik va uslubiy qiymatga ega emas. Ayniqsa, tabiiylik, milliy-lisoniy moslik va semantik nozikliklar har doim inson ekspertizasi hamda tilshunoslik nazariyasiga tayanadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli davrda o'zbek tilining rivojlanishi va sofligini saqlashdan maqsad o'zlashmalarni mutlaq rad etish yoki barcha yangi tushunchalarni sun'iy tarjima qilish emas, balki har bir termin uchun ma'no aniqligi, tabiiylik, milliy-lisoniy moslik va amaliy qo'llanishni uyg'unlashtirgan me'yoriy yechimni topishdan iboratdir. Sun'iy intellekt ushbu jarayonda tezkor variantlar beruvchi ko'makchi vosita hisoblanadi, yakuniy lingvistik to'xtam esa tilshunos ekspertlar hamda adabiy til me'yorlari asosida qabul qilinishi lozim

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmoni. "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". LexUZ.

2. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010.

3. UNESCO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. UNESCO, 2021.

4. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

5. Abdurahmonov G'., Mahmudov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2008.

6. Hojiyev A. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan.1982

7. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – Toshkent: Universitet. 2014

8. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya). – Toshkent: «Turon-Iqbol», 2021.

9. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent, 1992.

10. Hojiev A. O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996